Tadqiqot uz

ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

# ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

# ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

# JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

SPECIAL ISSUE-2

ТОШКЕНТ-2024

# ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№SI-2 (2024) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-2



**Бош муҳаррир:**
**Главный редактор:**
**Chief Editor:**
**Сеитов Азамат Пулатович**
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**
**Заместитель главного редактора:**
**Deputy Chief Editor:**
**Сабирова Умида Фархадовна**
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

### 22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
### Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
### Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Каланов Комил Куллахматович**
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Негматова Шахзода Шухратовна**
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
**Шайылдаева Асель Кокоевна**
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**
доктор экономических наук, (Узбекистан)
**Щепилова Галина Германовна**
доктор философских наук, профессор (Россия)
**Рожанский Михаил Яковлевич**
кандидат философских наук (Россия)
**Маматов Нормурат**
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
**Бурнашев Рустам Ренатович**
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

### 22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
### Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
### Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилович**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Холбеков Абдуғани Жуманазарович**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**
доктор социологических наук, профессор (Россия)
**Акулич Мария Михайловна**
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**
доктор политических наук, профессор (Испания)
**Фадеева Любовь Александровна**
доктор социологических наук, профессор (Россия)
**Виктор Агаджаньян**
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллевич**
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

### 22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
### Социология социального сознания и социального процесса.
### Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Николов Стефан**
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
**Ли Ци**
доктор исторических наук, профессор (Китай)
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**
доктор социологических наук, профессор (Россия)



www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

# ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:


22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Толипов Файзулла Саидович**
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Тагиева Гулсум Гафуровна**
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
**Ахмедова Феруза Медетовна**
доктор философии по социологическим наукам (PhD) (Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Заитов Элёр Холмаматович**
доктор философии по социологическим наукам, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**
доктор философии по социологическим наукам, доцент (Узбекистан)
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

**Махкамов Қодиржон Одилжонович**
доктор философии по социологическим наукам, доцент (Узбекистан)
**Доспанова Дилара Уракбаевна**
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Якубов Ильдар Харрасович**
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

**Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов**



**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000



МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

**1. Xolbekov Abdug‘ani, Rasulov Xakim**
HUQUQIY MADANIYAT VA SIYOSIY MADANIYAT O‘ZARO ALOQADORLIGINING SOTSIOLOGIK TALQINI……………………………………………………………………9

**2. Сеитов Азамат Пулатович**
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ДАННЫХ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ СФЕРЕ УЗБЕКИСТАНА…………………………………………………………………………..18

**3. Якубов Ильдар Харрасович, Парманов Фарход Ярашевич**
КОНЦЕПЦИИ ВЛИЯНИЯ ИНТЕРНЕТ-ПРОСТРАНСТВА НА ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ………………………………………………………………27

**4. Убайдуллаева Раиса**
ПРАВО, КАК ПРОФИЛАКТИКА ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ…………………………35

**5. Abduraxmonova Manzura**
IJTIMOIY HIMOYANI RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY ISH KASBIY FAOLIYATINING NAZARIY KONSEPTUAL JIHATLARI…………………………………………………………42

**6. Madaminov Baxodir**
JISMONIY MADANIYAT SHAXS IJTIMOIYLASHUVINING ASOSIY OMILI SIFATIDA…51

**7. Yusupov Rahimjon**
SOTSIOLOGIYANI O‘QITISHDA AHOLINI RO‘YXATGA OLISH TADBIRLARIDAN FOYDALANISH………………………………………………………………………………59

**8. Узакова Зарина**
ФЕНОМЕНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «СОЦИАЛЬНЫЙ КАПИТАЛ» И РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ……………………………………………………………………..68

**9. Burxanov Xusniddin**
RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH VA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI……………………………………………..75

**10. Hojiyev Zavqiddin**
TASHKILOTLARDA XODIMLAR FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH BO‘YICHA ILMIY-METODOLOGIK YONDASHUVLARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI……………….83

**11. Mahammadjanov G‘olibjon**
ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСТИТУТЛАР ВА ИЖТИМОИЙ ОНГ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ: ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИК, ЗАРУРАТ ОМИЛЛАРИ (СИНЕРГЕТИК ЁНДАШУВ)…………………………………………………………………..93

**12. Gaibnazarov Boxodir**
DAVLAT VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDA SOTSIAL BOSHQARUVNING ZARURIYATI OMILLARI (SOTSIOLOGIK YONDASHUV)…………………………………100

**13. Mamatqulova Fotimaxon**
O‘ZBEKISTONDA PENSIYA VA NAFAQALARNI RIVOJLANISH BOSQICHLAR……….107

**14. Komilova Xurshida**
XOTIN-QIZLARNI ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI FAOLIYATINING IJTIMOIY ASPEKTLARI - XALQARO TAJRIBA……………………………………………………114

**15. Mannanov Erkin**
SIYOSIY MADANIYAT: ZARURIYATI VA FUNKSIYALARI……………………………123

**16. Ubaydullayev Xurshidjon**
MIGRATSIYA VA TA'LIM MIGRATSIYASINI SOTSIOLOGIK JIHATDAN TAHLIL QILISH…………………………………………………………………………130

**17. Akramov Davronbek**
XAVF GURUHIDAGI OILALAR VA ULARNING BOLALARIGA IJTIMOIY XIZMATLAR KO'RSATISHDA KEYS MENEJMENT USULINING SAMARADORLIGI………………….139

**18. Imomova Nozimaxon**
MEHNAT MIGRATSIYASINING XUQUQIY ME'YORIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH…………………………………………………………………148

**19. Ахмедова Раъно**
АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ИНДИКАТОРОВ БЛАГОСОСТОЯНИЯ…………………………..157

**20. Латипова Нодира, Абдугафурова Чарос**
СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ СОЗДАНИЯ ДОСТУПНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ЛЮДЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В ВУЗЕ…………………………..…….167

## ПРЕДИСЛОВИЕ К НОМЕРУ

Узбекистан, как страна, поставившая целью построение демократического государства, на системной основе проводит выборы различного уровня, которые базируются на нормативно-правовой базе, регулярно совершенствуемой в соответствии с международными избирательными стандартами. Все это направлено на обеспечение участия граждан в управлении государством и обществом, реализацию принципа волеизъявления народа как неотъемлемого атрибута демократического правового государства. Социология как теоретическая наука, анализирующая эмпирические показатели развития общества, также вносит свой достойный вклад в дело осмысления и совершенствования практики проведения выборов с учетом национального опыта демократических выборов.

Так, одним из проявлений политической жизни общества является участие в выборных процессах. Фактически этот акт является важнейшей формой проявления воли народа, от которой зависит характер и особенности общественного и государственного строительства. Социология как инструмент позволяет изучать комплекс проблем, связанных с особенностями подготовки и проведения выборов, а также с поведением населения в выборных компаниях, в том числе электоральных ориентаций социальных общностей и отдельных граждан. Наша наука позволяет на основе эмпирики лучше понять факторы, влияющие на участие в выборах и голосовании, мотивы участия или неучастия в них, изучение участия электората, особенности восприятия ими предвыборных мероприятий, партий и лиц кандидатов, оценка эффективности деятельности СМИ и уровней их влияния на позиции выборов, прогнозирования результатов выборов и т. д.

Это тем более важно, что 27 октября 2024 года в Узбекистане пройдет очередные парламентские выборы. Теперь они пройдут на основе внесенных изменений и дополнений в Избирательный кодекс страны, которые включают порядок проведения выборов в Законодательную палату на основе мажоритарно-пропорциональной (смешанной) системы. В этой системе избирательные округа теперь делятся на одномандатные и единый избирательный округ. 75 депутатов Законодательной палаты будут избраны от одномандатных округов по мажоритарной системе (голосование за кандидата), остальные 75 - по пропорциональной, то есть на основе голосов, отданных политическим партиям (по партийным спискам).

Все это и послужило важным мотивом выпуска данного специального выпуска нашего научного журнала. Открывает данный номер моя статья «Использование социологических данных в политической сфере Узбекистана», посвященной проведению социологических исследований и использования их данных в реализации предвыборных технологиях. Так, утверждается, что в условиях низкой политической активности в Узбекистане представляется важным использовать наработки политической социологии в сфере разработки и реализации стратегий в сфере политического управления в части работы с информационными и коммуникационными потоками. Через комплексное использование ПР-средств поддерживается репутация кандидата, формируется паблисити, создается общий план воздействия на сознание человека.

Интерес представляет и статья профессора Национального университета Узбекистана (далее НУУз), д.соц.н. А.Холбекова и заведующего кафедрой Термезского государственного педагогического института, к.п.н., профессора Х.Расулова на тему «Социологическая интерпретация взаимосвязи правовой и политической культуры». В статье рассматривается интерес граждан к процессам, связанным с политической жизнью общества, восприятием и обеспечением своих прав и свобод, оценка населением не только уровня правовой и политической культуры общества, но также анализируется система управления, политическая культура действующих в ней ответственных руководителей, тенденции их лидерских качеств.

В журнале опубликована статья доцента Университета мировой экономики и дипломатии (УМЭД), к.п.н. И.Якубова и доцента Академии государственного управления

(АГУ), д.соц.н. Ф.Парманова на тему «Концепции влияния интернет-пространства на общественно-политические процессы». В статье проанализированы некоторые теоретические аспекты и различные подходы исследователей к осмыслению данного феномена, выявлены некоторые их особенности. В статье приводятся данные прикладных исследований, указывающие на растущую роль интернет-коммуникаций в формировании общественного мнения, взглядов общества на те или иные общественные проблемы.

Статья профессора НУУз, д.соц.н. Р.Убайдуллаевой «Право, как профилактика девиантного поведения» посвящена современным тенденциям в развитии права как основного регулятора общественной жизни. По мнению автора, в развитии права можно проследить тенденции гуманизации, дифференциации и прагматизации, позволяющие вести учет многообразия форм, уровней, способов практической деятельности и тех трудностей, которые могут привести к правонарушениям.

Ряд авторов представляют собой ученых, непосредственно задействованных в процессах общественного и государственного управления в нашей стране. Например, руководитель отдела социально-правового медиацентра Олий Мажлис Республики Узбекистан, к.п.н. (PhD) Г.Махаммаджанова «Институты гражданского общества и трансформация социального сознания: взаимозависимость, факторы необходимости (синергетический подход)». В статье рассмотрена деятельность, изменения, обновление, преобразование социальных институтов в обществе. Также Б.Гаибназаров, исследователь АГУ в статье «Факторы необходимости социального управления в отношениях государства и общества (социологический подход)», проанализировал новые тенденции, характерные для управления в современном обществе и государстве, в частности, социального управления с социологической точки зрения.

Влияние социальных сетей на выборы рассмотрел к.с.н., соискатель НУУз Х.Бурханов в статье «Проблемы обеспечения информационной безопасности в цифровом обществе и развития национальных сайтов». В данной статье изучен вопрос расширения возможностей информационной системы, развития национальных сайтов Узбекистана в Интернете, современная ситуация и имеющиеся проблемы.

Говоря о выборах можно с большой вероятностью можно говорить о том, что основной тематикой дебатов между политическими партиями страны будет вопрос эффективной реализации идеи «Узбекистан - социальное государство». В этой связи интерес представляет ряд статей, затрагивающих социальный блок развития общества. В частности, заместитель директора Филиала НИЯУ МИФИ в г. Ташкенте, к.с.н. З.Узакова в статье «Феноменологический анализ концепта «социальный капитал» и роль психологических факторов в формировании социального капитала лиц с инвалидностью» дала теоретический анализ преимущественно с позиции междисциплинарного подхода. Результаты исследований автора свидетельствуют о том, что несмотря на разработанные рекомендации по повышению социального капитала людей с инвалидностью, такие как создание доступной среды, инклюзивная и трудовая интеграция, тщательный подбор социального работника, эта проблема все еще остается актуальной и требует более тщательного изучения.

В статье профессора Ферганского государственного университета (ФГУ), д.с.н. (DSc) М.Абдурахмоновой даны теоретико-концептуальные аспекты профессиональной деятельности социальной работы по развитию социальной защиты. В статье разъяснено значение профессионального этического кодекса профессии социального работника при оказании социальных услуг, сделаны выводы о значении социальной работы в развитии профессиональной деятельности в новой системе социальной защиты Узбекистана.

В номере еще одна статья из Ферганы, а именно, доцента ФГУ, к.с.н. (PhD) Н.Имомовой «Совершенствование правовой и нормальной базы в сфере трудовой миграции», затрагивающей такую актуальную для общественного мнения в период выборов тему как государственную политику по регулированию процессов трудовой миграции. В статье представлены выводы, полученные в результате сравнительного анализа социологических исследований и официальных данных, проведенного автором.

В завершение отметим, что статьи из данного специального номера нашего журнала найдет своего читателя и будет способствовать лучшему понимаю развития современной социологической мысли в нашей стране. Напомним, что наш журнал открыт для любого автора, который стремиться донести свои мысли об общественных процессах, которые представляют актуальный характер.

**С уважением,**
**Главный редактор Сеитов Азамат**

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Gaibnazarov Boxodir,**
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlat boshqaruvi
akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: bohodirgbr888889@gmail.com

# DAVLAT VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDA SOTSIAL BOSHQARUVNING ZARURIYATI OMILLARI (SOTSIOLOGIK YONDASHUV)

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.13338529**

**ANNOTATSIYA**

Maqolada zamonaviy jamiyat va davlatlarda boshqrauvga xos bo'lgan yangi tendensiyalar, xususan, sotsial boshqaruvning zaruriyatining sotsiologik nuqtai nazardan tahlili ochib berilgan. Unga ko'ra, zamonaviylashuv va transformatsiya jarayonlari avvalo, insonlarning qarashlarini o'zagrtirish bilan birga, ularni davlat va jamiyatga bo'lgan munosabatlarida ham jiddiy o'zgartirishlar yasaydi. Rivojlangan mamlakatlarda sotsial boshqrauvning jamiyatdagi o'rni masalasidagi qarashlari ilmiy jihatdan o'rganilgan va tahlil etilgan. Shu bilan birga, sotsial boshqaruvning faqatgina biror bir tashkilot misolida emas, balki butun bir jamiyatdagi zaruriyati hamda davlatning siyosiy barqarorligining omillaridan biri ekanligi urg'ulangan. Jarayonni sotsiologik nuqtai nazardan o'rganishning amaliy jihatlari, boshqaruvni takomillashtirish imkoniyati ekanligi ilmiy jihatdan o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy, sotsial boshqaruv, sotsial boshqaruvning asosiy mexanizmlari va uslublari, tendensiya, ijtimoiy faollik, boshqaruv uslublari, sotsiologik, o'zgarishlar, transformatsiya, zamonaviylashuv, modernizatsiya, istiqbollar, nazorat, tartib, ijtimoiy tuzilmalar.

---

**Гаипназаров Баходир,**
независимый исследователь Академии
государственного управления при
Президенте Республики Узбекистан
e-mail: bohodirgbr888889@gmail.com

# ФАКТОРЫ НЕОБХОДИМОСТИ СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ В ОТНОШЕНИЯХ ГОСУДАРСТВА И ОБЩЕСТВА (СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД)

**АННОТАЦИЯ**

В статье раскрываются новые тенденции, характерные для управления в современном обществе и государстве, в частности, анализ необходимости социального управления с социологической точки зрения. Процессы модернизации и трансформации, прежде всего, меняют взгляды людей, вносят серьезные изменения в их отношения с государством и обществом. В развитых странах взгляды на роль социальных лидеров в обществе

подвергаются научному изучению и анализу. При этом подчеркивается, что социальное управление необходимо не только в случае конкретной организации, но и всего общества, и что оно является одним из факторов политической стабильности государства. Научно изучены практические аспекты процесса с социологической точки зрения, возможности совершенствования управления.

**Ключевые слова:** социальный, социальный менеджмент, основные механизмы и методы социального управления, тенденция, социальная деятельность, стили управления, социологический, изменения, трансформация, модернизация, модернизация, перспективы, контроль, порядок, социальные структуры.

---

**Gaibnazarov Bahodir**,
Independent researcher at the Academy
of Public Administration at
President of the Republic of Uzbekistan
e-mail: bohodirgbr888889@gmail.com

## FACTORS OF THE NECESSITY OF SOCIAL MANAGEMENT IN STATE AND SOCIETY RELATIONS (SOCIOLOGICAL APPROACH)

**ABSTRACT**

The article reveals new trends characteristic of management in modern society and the state, in particular, an analysis of the need for social management from a sociological point of view. The processes of modernization and transformation, first of all, change people's views, make serious changes in their relations with the state and society. In developed countries, views on the role of social leaders in society are subject to scientific study and analysis. At the same time, it is emphasized that social management is necessary not only in the case of a specific organization, but also for the whole society, and that it is one of the factors of political stability of the state. Practical aspects of the process from a sociological point of view, the possibilities of improving management are scientifically studied.

**Key words:** social, social management, basic mechanisms and methods of social management, trend, social activity, management styles, sociological, changes, transformation, modernization, modernization, perspectives, control, order, sosial structures.

---

### KIRISH

Har bir xalq oʻz davlatchiligini barpo etar ekan, bu ijtimoiy-siyosiy jarayon oʻziga xos tarzda bir qancha omillarga bogʻliq holda rivojlangan, yangicha koʻrinishga ega boʻlib kelgan. Bu, oʻz navbatida, ijtimoiy institutlar va ularning faoliyatiga bevosita bogʻliq tarzda amalga oshirilgan. Mazkur muammo borasida koʻplab ilmiy-bahslar mavjud boʻlib, oʻrganilgan manbalarning aksariyati ijtimoiy institutlarning rivojlanishi (sotsial boshqaruv) hamda ularning oʻzgaruvchanligi koʻrsatkichlarini aniqlashni taqozo etadi.

Bu jarayon oʻz davlatchiligiga ega boʻlgan har bir jamiyatning rivojlanishi borasidagi asosiy ilmiy-nazariy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu ilmiy muammoga bagʻishlangan tadqiqotlarning birida quyidagicha fikr yuritilgan: «Jamiyat va davlat munosabatlari shakllanishida demokratiya tamoyillarini joriy etishda ishtirok etayotgan ijtimoiy institutlar, qachonki aholi asosiy qismining manfaatlari va ijtimoiy hamda ijtimoiy maqsadlarini ifoda etishga qodir boʻlmas ekan, ularni bu jamiyat davlat siyosiy munosabatlaridagi oʻrnini toʻla ma’noda samarali deb hisoblash mumkin emas [1, – C.400].

Sotsial boshqaruv har bir jamiyat va davlat uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy institut hisoblanadi. Ushbu atama chet tillariga lotin tilidan kirib kelgan boʻlib, “institutum” – “oʻrnatish”, “tuzilish”, “qurilish” kabi ma’nolarni beradi. Aslida, institut – jamiyatning ma’lum sohasini tartibga solish uchun shakllangan rasmiy va norasmiy qoidalar uygʻunligidir.

Yana bir ta'rifga ko'ra, tarixan shakllangan va jamiyat hayotini tartibga solishga xizmat qiluvchi qadriyatlar, ramziy belgilarga ega tashkilotlar birligi tushuniladi. Fikrimizcha, jamiyatning eng muhim ehtiyojlarini tartibga solish, boshqarish hamda yo'naltirish nuqtai nazaridan ijtimoiy institutlar har qanday boshqaruv asosidagi jamiyatlarda alohida ahamiyat kasb etadi, bunda ularning faoliyat mezoni, avvalo, aholining manfaatlari birligi bilan ifodalanadi. b.Berdiyevning fikriga ko'ra, tabiiy ehtiyojlarni qondirish uchun ijtimoiy hayotda ham o'zgarishlar yuz berishi lozim bo'ladi [2, – C.79]. Aslini olganda, jamiyatdagi sotsial boshqaruvni tartibga solish – jamiyatni tartibga solish bilan belgilanadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy boshqaruv va ularning o'zgaruvchanligi yuqorida ta'kidlaganimizdek, siyosiy tizimning mustahkamligi va barqarorligini ta'minlab borish fonida har bir jamiyat uchun muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi. Arendt Leypxartning fikricha, «Siyosiy barqarorlik – bu keng o'lchovli tushuncha. U siyosiy tizimni, fuqarolik tartibini saqlash tushunchalarini, qonuniylik va samaradorlikni o'z ichiga oladi» [3, – C.218].

Bu jarayonlarning amaliyligini ta'minlash, avvalo, jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning, avvalo, sotsial boshqaruvning zimmasidagi eng birinchi vazifa hisoblanadi.

**METODOLOGIYA**

Jamiyatning taraqqiyoti uning murakkabligi, uning a'zolari, shuningdek, ularni birlashtiruvchi (yo'naltiruvchi) institutlar xilma-xilligi bilan izohlanadi. Bu jarayonda sotsial boshqaruvning rivojlaniishi, hamda davlat boshqaruvning transformatsiyalashuvi zaruriy jarayon ekanligini ko'rsatadi. Sotsiologik va ilmiy tadqiqotlarning birida «Muayyan davlat hayotida demokratik tamoyillarni rivojlanish belgisi birinchi navbatda uning siyosiy institutlari faoliyati, sotsial boshqaruvning natijasi (faolligi) bilan belgilanishi ta'kidlanadi. Shu ma'noda sotsial boshqaruvning ma'lum bir jamiyatda o'rnatilgan ko'pchilik tomonidan e'tirof etiladigan muhim ijtimoiy institut hisoblanadi» [4, – C.245].

Sotsial boshqaruvni ijtimoiy institut sifatida jamiyatdagi turli manfaatlarni bir maromda tutib turish, nizolarni bartaraf etish uchun xizmat qiluvchi «nazorat va tartib» mexanizmi, desak ham bo'ladi.

Sotsial boshqaruvni o'rganish, o'zgarishlar jarayonida – ular yangi ijtimoiy, siyosiy munosabatlarni shakllantirish barobarida fuqarolarni yagona birlikka (maqsadga) birlashtirish vazifasini bajaradi. Zotan, sotsial boshqaruv – bu ijtimoiy-siyosiy jarayon. U o'zi bilan birga turli munosabatlarni shakllantirish xususiyatiga ega.

**ASOSIY QISM**

Boshqaruv har qanday jamiyat va har qanday tizimni tartibga solish, boshqarish, yo'naltirish uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Boshqaruvni tashkil etish – siyosiy tizimninng barqarorligini bilan bog'liq bo'lsada, ammo uning asosiy vazifasi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va yo'naltirishi bilan izohlanadi. Boshqaruvning zaruriyati masalasi aslida kibernetika fani bilan og'lansada keyingi yillarda ijtimoiy fanlarda, ayniqsa, sotsiologiya fanlarida muhim ahamiyat kab eta boshladi.

Sotsial boshqaruv – davlat boshqaruvning yengillashtirish, soddalashtirish imkoniyatini yaratadi. Boshqaruv tushunchasining mohiyati jamiyatning barcha sohalarida tadbiq etilsada, ammo uning asosiy mazmuni masalasida yagona to'xtamga kelinmagan.

O'rganishlarga ko'ra, sotsial boshqrauv, tarixiy ijtimoiy institutlar qatorida o'zining tarixiy taraqqiyot evolyutsiyasiga ega. Shu bilan birga, sotsial boshqaruvning rivojlanishiga xos bo'lgan turli qarashlar, sotsiologik yondashuvlar mavjud bo'lib, unda ularning o'zarishi, sabablari, omillari atroflicha ochib berilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu tushunchaning rivojlanishiga xos bo'lgan xos munosabatlar quyidagi davriyliklarga ajratilgan holda tadqiq etiladi:

1) diniy qarashlarda;
2) eng qadimgi davrga xos ijtimoiy va siyosiy qarashlarda;
3) o'rta asrlar davriga xos siyosiy-huquqiy qarashlarda;
4) yangi davr va unga xos bo'lgan liberal qarashlarda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, iqtisodiy jihatdan rivojlanish davlat taraqqiyotining yagona va oxirgi mezoni emas. Shu nuqtai nazardan sotsial boshqaruvning rivoji, taraqqiyoti va faoliyatining evolyutsiyasi oʻzining dolzarbligini yoʻqotmaydi.

Sotsiolog olim Yu.Kozlov sotsial boshqaruvga xos quyidagi asosiy belgilarni koʻrsatib oʻtadi va shundagina sotsial boshqaruvning imkoniyatlarini ochib berishini aloihada ta'kidlab oʻtadi va ular quyidagilardan iborat:

1. Boshqaruv – jamiyat va tabiat tizimning tartiblashtirilgan koʻrinishi hisoblanadi (biologik, texnik, ijtimoiy nuqtai-nazardan).

2. Sotsial boshqaruv – uning asosiy obyektlari oʻrtasidagi munosabatlarni yagona maqsadga yaxlitlash imkoniyatlarini oʻzida mujassamlashtirgan boʻladi.

3. Sotsial boshqaruv – boshqaruv tizimning ichki saqlanuvchanlik quvvatini oishirib boyerishning asosiy omili hisoblanib, unda tizimning barqarorligini koʻrsatib beruvchi indikatorlar mavjud boʻladi.

Boshqaruv – inson resurslarining yana-da yangi bosqichga koʻtarish, jarayonda sodir boʻladigan muammolarni oldini olishining asosiy omilili sifatida maydonga chiqish zarur boʻladi [5, – C.51].

Ammo, shu bilan birga, sotsial boshqaruvning ma'lum bir tizimning birdan bir imkoniyati, obyekti sifatida tushunilmasligi lozim boʻladi. Boshqaruv tizimning takomilining asosiy elementilaridan biri xolos. Ammo shu oʻrinda uning asosiy rol oʻynashini ta'kidlab oʻtish maqsadga muvofiq. Yana bir olim N.A.Kurtikovning fikricha, sotsial boshqaruv – subyekt va obyekt munosasabtlarining ijtimoiy qiymatini oshirishga qaratilgan yagona manfaatlariga ximat qiladigan munosabatlar yakdilligidir [6, – C.51].

Sotsiologiya fani doirasida sotsial boshqaruvning asosi boʻlgan boshqaruvni tadqiq etishning an'anaviy quyidagi tiplari bilan izohlanadi:

1. Mexanik yoki texnik boshqaruv (mashinalar va texnologik vositalari orqali boshqaruv);

2. Biologik boshqaruv (jonli organizmlar orqali boshqaruv nazarda tutilmoqda);

3. Sotsial boshqaruv (jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, oʻzgartirish va yoʻnaltirish, insonlarga ta'sir qilish va boshqaruv tizimini rivojlantirish va hok.)

Yuqorida koʻrsatib oʻtilganidek, sotsial boshqaruv har bir jamiyat uchun zaruriyati – turlicha ijtimoiy munosabatlarga ta'sir eta olish imkoniyati, yoʻnalishi, uslubi ekanligi bilan ifodalanadi. Hatto, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish yoʻlga yoʻilmagan jamiyatlarda siyosiy xaoslarni kuzatishimiz mumkin. Sotsial boshqaruv haqida soʻz yuritilganda uning davlat boshqaruv bilan bogʻligi kattadek tuyuladi, ammo uning asosiyda davlatdan ham kattaroq boʻlgan munosabatlar, ya'ni fuqarolarning qarashlari, intilishilari va jamiyat munosabatlarida ishtiroki holati yotadi. Hatto tahlilllar davomida boshqaruv davlatdan ham oldingi davrga borib taqalishi haqida qarashlar ham mavjud.

Ijtimoiy boshqaruvga odatda ehtiyoj sezilgandagina, uning aahamiyati yana-da oshadi. Shu nuqtai nazardan, sotsial boshqaruvning shakllanishi shajarasini oʻrganilganda (sotsiologik nuqtai nazardan) avvalo mehnat munosabatlarida paydo boʻlgan muammolarni hal etish va ularni yangicha bosqich va koʻrinishda boʻlishini ta'minlash yuzasidan vujudga kelgan.

Har qanday guruhlar, jamoalar, qatlamlarni yagona maqsadlarga birlashtirish masalasi bugungi kunda, ayniqsa, gloallashuv davrida har qachongidan ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Sotsial boshqaruv davlat siyosatining alohida fundamental rivojlanish konsepsiyasi sifatida e'tirof etilishining ham boisi shunda. Insonlarning ijtimoiy onggi oʻzgardi, demak ularning talablari ham ortib, oshib bormoqda. Fuqarolarni yagona maqsadlar asosida birlashtirish masalasi – be bevosita sotsial boshqaruvning asosiy oʻrganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Yagona maqsad avvalo, ularning oʻrganishni, sotsiologik yondashuvlarni talab etadi.

Yangi asr boshida har qanday davlat va jamyatning sotsial boshqaruvga boʻlgan "ehtiyojining" oshishining bir qancha omilllari mavjud. Ulardan biri – jamiyat a'zolarining soni va tafakkur darajasining soat sayin oshib borishi, ularni oʻrganishni va ta'sir etishni talab etayotganligi bilan bogʻliqdir.

zamonaviylashuv, globallashuv natijasida sotsial boshqaruv bilan bog‘liq bo‘lgan institutlarning turlari, ko‘rinishlari, yo‘nalishlari soni ham o‘zgarib bormoqda. Tuzilishiga ko‘ra jamiyatdagi institutlarning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

1) shaxsiy huquq va huquqiy institutlar;

2) jamiyatning siyosiy institutlari;

3) jamiyatning moliyaviy institutlari;

4) rasmiy va norasmiy mehnat institutlari, masalan, mehnat to‘g‘risidagi qonun, bandlik va rasmiy, norasmiy bandlik faoliyati;

5) yashirin iqtisodiy institutlar, masalan, davlat iqtisodiy qonunlariga bo‘ysunmaslik, soliqlar to‘lashdan bosh tortish. E.Dyurkgeymning fikricha, bu jarayon «ularning shakllanishi insonlarning ijtimoiy hamkorligi bilan bog‘liq. U jamiyatni «mexanik hamkorlik» va «organik birdamlik» asosida birlashgan turlarga ajratadi. Jamiyatlarga xos bo‘lgan birinchi ko‘rinish an’anaviy boshqaruv mezonlarining ta’siri kuchli ekanligi bilan, navbatdagi turi esa ana shu jamiyatlar siyosiy institutlarining transformatsiyalashuvi oqibatida zamonaviylik ko‘rini-shiga ega bo‘lishi holatida namoyon bo‘ladi» [7, – C.143].

M.Veber jamiyat istiqbolini bevosita inson omili bilan bog‘lagan holda avvalo davlat boshqaruvida institutlar, xususan sotsial boshqaruvning tarkibini quyidagicha tahlil qiladi:

1) rasmiylik – ya’ni insonlar o‘rtasidagi munosabatlar bevosita belgilab qo‘yilgan qonun-qoidalar, ramziy belgilar asosida o‘zgarishi;

2) instrumental – insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning ma’lum maqsadlar asosida birlashtirish mexanizmi asosida o‘zgarishi;

3) konseptual – bu holat insonlarning munosabatlari turli nazariya, aql, empirik bilimlar asosida o‘zgarishi;

4) substansional – yuqoridagi jarayon insonning o‘z qarashlari, xatti-harakatlari, qadriyatlar, axloqiy me’yorlar asosiga qurilishi [8, – C.180].

Ammo, sotsial boshqaruvning boshqaruv usullaridan o‘ziga xos ajratib turuvchi belgilari va imkoniyatlari mavjud. Buni to‘g‘ri anglash lozim. Ijtimoiy boshqaruv atamalari bilan ishlatilishi bejizga emas. U avvalo, sotsiologiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lishiga ham sabablar shunda. Har bir jamiyatdagi sotsial boshqaruvning ahamiyatini anglash uchun, avvalo uning ijtimoiylik xususiyatlarini to‘g‘ri anglash zarur bo‘ladi va shundagina uni boshqa fanlar paradigmalaridan farqlari ko‘rinadi.

Sotsiolog olim, D.N.Baxranning fikriga ko‘ra, sotsial boshqaruvning quyidagi asosiy farqli jihatlari mavjud:

A) Odamlarni boshqarish. Bunday munosabatlarning asosiy obyekti bitta odam bo‘lishi yoki turli guruhlar, norasmiy qatlamlar ham bo‘lishi mkmkin. Aynan insonlarni turli guruhlarda mavjud bo‘lishi bilan birga uni boshqarish, unga ta’sir ko‘rsatish zaruriyati bilan sotsial boshqaruv boshqa turdagi boshqaruv shakllaridan ajralib turadi;

b) boshqaruv ishtirokchilarining avtonom boshqaruv xususiyatiga ega bo‘lishi. Bunda sotsial boshqaruvning asosiy obyektlari, insonlar, jamoalar, millatlar o‘ziga xos ong va tafakkurga ega bo‘ladi va vaziyatlarga o‘z munosabatlarini bildira olishadi.

v) Sotsial boshqaruv ongli ravishda amalga oshiriladi. Bunda jamoani birlashtirish uchun aniq maqsad, aniq dasturlar mavjud bo‘ladi va bu ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishning asosiy omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi [9, – C. 6].

Keltirilgan fikrlar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, muayyan davlat va jamiyat hayotida siyosiy barqarorlikning o‘ziga xos elementlari, avvalo, uning asosiy ijtimoiy institutlari, shuningdek, sotsial boshqaruv yordamida ta’minlanadi. Fikrimizcha, sotsial boshqaruv – davlatning rivojlanishi uchun strategik, kompleks yondashuvlarni shakllantirishning asosiy manbasi sifatida ham talqin etishimiz mumkin.

Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, sotsial boshqaruvning tarkibiy qismi o‘zida quyidagilarni ifoda etadi:

1) qonun-qoida va ijtimoiy statuslarni o‘z ichiga olgan, ma’lum vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan rollar tizimi; 2) qadriyatlar, an’analar, xulq-atvor me’yorlari uyg‘unligi; 3) rasmiy va

norasmiy tuzilmalar; 4) jamiyatning ma'lum sohasini tartibga soluvchi va boshqaruvchi qoida, tartibotlar majmui; 5) jamiyatda alohida o'rin tutuvchi ijtimoiy harakatlar majmui.

Sotsial boshqaruvning rivojlanishiga oid yana bir qarashga ko'ra, jamiyatdagi aholining turli qatlamlari orasida birdamlikni ta'minlash ular o'rtasidagi nizolarni tartibga solish bilan bog'lanadi, aslida bunday nizolar bo'lmagan taqdirda ularning jamiyatdagi o'rni ham sezilmasligi alohida ta'kidlanadi [10, – C.29]. E'tiborli jihati shundaki, sotsial boshqaruv institutlar faqatgina davlatning manfaatlari uchun emas, aholi qarashlarini hokimiyat va davlat miqyosida ifoda etish uchun doimiy mas'ul vakillik tashkiloti vazifasini ham bajarishi mumkin.

Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatlarda sotsial boshqaruvga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi omillari oshib bormoqda. Bu birinchidan, insonlarning tug'ilish soni ortib borishi bilan izohlanadi. Bir odam-bir boshqaruv obyekti tamoyili shakllanmoqda. Sotsial boshqaruv jamiyatda, avvalo, xulq-atvor qoidalarini tartibga solish imkoniyatiga ega ekanligi bilan «nazorat markazlari» vazifasini bajarib beradi. Jamiyatda qanchalik institutlar samarali faoliyat ko'rsatsa, taraqqiyotda ko'zlangan natijalarga erishiladi. Jamiyatning siyosiy tizimini tadqiq qilgan amerikalik olim T.Parsonsning qarashlarida institutlar, ayniqsa, sotsial boshqaruv institutlari alohida o'rin tutadi. Uning fikricha, siyosiy institutlar insonning jamiyatdagi siyosiy harakatlarini nazorat qiladi va oqibatlarini tartibga soluvchi mexanizmdir [11, – C.301]. Buning asosida zamonaviy jamiyat qurish jarayonida sotsial boshqaruvning zaruriyatini ilmiy asoslab berilgan.

Darhaqiqat, globallashuv oqibatida jamiyatlar va davlatlar hayotida tezlashib borayotgan zamonaviylashuv tendensiyasi sharoitida sotsial boshqaruv har qachongidan ham muhim zaruriy institutsiyaviy tuzilma sifatida e'tirof etilmoqda. Tan olish kerakki, demokratiya tamoyilining biror-bir mamlakatda qaror topishini aynan ijtimoiy institut, avvalo sotsial boshqaruv belgilab beradi. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy institutlari, bir so'z bilan aytganda, aholining yangicha qarashlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi tashkilotidir.

Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy tuzilmalarni boshqarish, tartibga solish nuqtai nazaridan sotsial boshqaruv jamiyatdagi ijtimoiy xaoslarni oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi. Zero, insonlarni boshqarish emas, ularga ijobiy ta'sir ko'rsatish uslubiga avvalo, jamiyatdagi sotsial boshqaruv va uning metodlari egalishgi bilan ajralib turadi.

**XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, sotsial boshqaruv va uning zamonaviy jamiyatlardagi ahamiyati haqidagi konseptual yondashuvlarga ko'ra, ularning muayyan davlatdagi imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, sotsial boshqaruv jamiyatda, avvalo, davlat boshqaruvi-ning barqarorlik omili hisoblanadi. Bu jarayonning natijaviyligini anglash maqsadida ularning rivojlanishi tendensiyalarini, o'zgarish dinamikasini doimo tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi;

ikkinchidan, sotsial boshqaruvning rivojlanishiga xos jarayonlar muhim davlat va jamiyat muhim ijtimoiy-siyosiy barqarorlik tendensiyasi sanaladi. Shuning uchun o'rganilgan ilmiy tadqiqotlarda bu holatni yaqqol kuzatish mumkin. Shu bilan birga, sotsial boshqaruvni zamonaviylik munosabatlari bilan moslashuvchanligini o'rganishlarga kompleks tarzda yondashuvni talab etadi;

uchinchidan, sotsial boshqaruvning zamonaviy jamiyatlarda o'zgaruvchanligi, transformatsiyalashuvi, o'z navbatida, amaliyotda sinalgan boshqaruvga xos mexanizmlarni o'zida mujassamlashtirgani bilan zamonaviy boshqaruvni mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi;

to'rtinchidan, sotsial boshrqauvning transformatsiyalashuvining samaradorligini o'rganishi muayyan jamiyatda demokratiyaning moslashuvchanligini belgilashning asosiy omillaridan biridir;

beshinchidan, sotsial boshqaruv faoliyatidagi o'zgarishlar, o'z navbatida, jamiyatda boshqaruv va uning ta'sir mezonlarining yangi ijtiomiy-siyosiy munosabatlariga kirisha olishi, uning tayyorgarlik darajasi zamonaviylashuv bosqichidagi davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, yangi siyosiy munosabatlarning uzluksizligini ta'minlab berishga xizmat qiladi. Bu esa har qanday jamiyat va davlatning siyosiy tizimi mustahkamligining asosiy omilidir.

**Adabiyotlar/ Литература/ References:**

1. Пантин В.И. Глобализация и проблемы развития демократических институтов в России и на Западе // Политические институты на рубеже тысячелетий. Дубна, 2001. – С. 400.
2. Бердиев Б. Ўзбекистонда сиёсий модернизация жараёнларининг ўзига хос хусусиятлари. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (Phd) даражасини олиш учун тайёрланган дисс. – Т.: 2019. – Б.79.
3. Лейпхарт А. Демократия в многосоставных обществах: сравнительное исследование. – М.: Аспект Пресс, 1997. – С. 218.
4. Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. «Академия» нашриёти, Тошкент, 2007. – Б. 254.
5. Основы социального управления: Учебное пособие / А.Г. Гладышев, В.Н. Иванов, В. И. Патрушев и др. Под ред. В.Н. Иванова. М.: Высшая школа, 2001. – С.50-51.
6. Государственное управление: основы теории и организации. Учебник. В 2 т. Т. 1/ Под ред. В.А. Козбаненко. М.: «Статут», 2002. – С.14.
7. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Одесса, 1900. – С. 143.
8. История социологии в Западной Европе и США. – М.: 1993. – С. 180.
9. Бахрах Д.Н. Основные понятия теории социального управления. Пермь, 1978. – С. 6.
10. Хантингтон С. Политический порядок в меняющихся обществах. – М.: Прогресс-Традиция, 2004. – С. 29.
11. Парсонс Т. (2018). О структуре социального действия. – М.: Академический проект. – С. 301.

ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

# ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

# ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

# JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

SPECIAL ISSUE-2

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000